



POWERPOINT DASTURINING O'ZBEK TILINI O'QITISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Komilova Zulxumor

Farg'ona davlat universiteti

Xumor851@mail.ru

Mullajonova Gulhayoxon

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o'zbek tili 1-kurs talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada Microsoft PowerPoint dasturining o'zbek tilini o'qitishdagi ahamiyati va o'rni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritilgan. Maqolada PowerPoint dasturining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari, u orqali o'quvchilarning nutq madaniyati, tahliliy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Maqolada o'zbek tili darslarida PowerPoint dasturidan foydalanish yo'llari — fonetik, grammatik, leksik, imlo va nutq o'stirish darslari misolida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, dasturdan foydalanishning metodik asoslari, dars jarayonida interaktivlik, ko'rgazmalilik va motivatsiyani oshirishdagi ahamiyati ilmiy asosda izohlangan. PowerPoint dasturining o'quvchilarning kompetensiyalarini, xususan, axborot-kommunikativ, ijodiy va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rnini ochib berilgan. Maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, PowerPoint texnologiyasi ta'lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda zamonaviy o'qituvchining raqamli kompetensiyasini shakllantiradi.*

Kalit so'zlar: *PowerPoint, o'zbek tili ta'limi, innovatsion texnologiya, interaktiv metod, ko'rgazmalilik, raqamli kompetensiya, dars samaradorligi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение и роль Microsoft PowerPoint в обучении узбекскому языку с научной, теоретической и практической точки зрения. Анализируются возможности PowerPoint в образовательном процессе, методы развития культуры речи.*

Ключевые слова: *PowerPoint, обучение узбекскому языку, инновационные технологии, интерактивный метод, демонстрация, цифровая компетентность, эффективность урока аналитического и творческого мышления учащихся с его помощью.*

Abstract: *This article examines the importance and role of Microsoft PowerPoint in Uzbek language teaching from a scientific, theoretical, and practical perspective. It analyzes PowerPoint's potential in the educational process and methods for developing a culture of speech.*

Keywords: *PowerPoint, Uzbek language education, innovative technology, interactive method, demonstration, digital competence, lesson effectiveness.*



Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quvchini, faollashtiradi, o'qituvchini esa yangilik yaratishga undaydi. Bugungi kunda ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos darajada ortib bormoqda. Xususan, zamonaviy ta'lim jarayonida Microsoft PowerPoint dasturi o'qituvchilar va o'quvchilar uchun samarali ta'lim vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan raqamli ta'lim siyosati, "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi, hamda ta'limni axborotlashtirish konsepsiyalari doirasida axborot texnologiyalarining ahamiyati yanada oshmoqda.

O'zbek tili darslarida PowerPoint dasturidan foydalanish o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, nutq madaniyatini rivojlantiradi, tahlil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

PowerPoint — bu prezentatsiya tayyorlash dasturi bo'lib, u ma'lumotlarni matn, grafika, jadval, rasm, audio va video materiallar yordamida taqdim etishga imkon beradi. Dastur o'qituvchilarga dars jarayonini vizual, eshitish va interaktiv tarzda olib borish imkonini yaratadi. Shuningdek: o'quvchilar diqqatini jalb etadi; Murakkab mavzularni sodda va tushunarli shaklda yoritadi; O'quv materiallarini tizimli tarzda taqdim etadi; Mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlantiradi.

O'zbek tili darslarida PowerPoint quyidagi yo'nalishlarda samarali qo'llaniladi:

Fonetik mavzular – tovush va harflarni ko'rgazmali tarzda tushuntirish.

Misol: tovushlarning talaffuzi, undosh va unli tovushlar farqlari.

Leksik mavzular – so'z boyligini kengaytirish, ma'no munosabatlarini slayd orqali ifodalash.

Misol: sinonim, antonim, omonimlar uchun vizual jadval va misollar.

Grammatik mavzular – so'z turkumlari, gap bo'laklari, otlarning turlari kabi mavzularni animatsiya bilan tushuntirish.

Nutq o'stirish mashg'ulotlari – matn tahlili, hikoya tuzish, maqol va iboralarni interaktiv tarzda o'rganish.

Imlo darslari – testlar, to'ldirish mashqlari, tanlovli savollar orqali imlo malakasini oshirish.

PowerPoint dasturining o'zbek tili o'qitishdagi afzalliklari quyidagilardan iborat:

Ko'rgazmalilik – o'quv materiallari rang, rasm, jadval orqali yodda qoladi.

Interaktivlik – savol-javob, test va animatsiyalar orqali o'quvchi faol ishtirok etadi.

Motivatsiya – ta'lim jarayonida o'yin elementlari orqali o'quvchining fanga qiziqishi ortadi.

Tizimlilik – dars materiallari izchil, bosqichma-bosqich tushuntiriladi.

Qayta foydalanish imkoniyati – tayyor slaydlar keyingi darslarda ham ishlatiladi.

PowerPointdan foydalanishning metodik asoslari

PowerPointdan foydalanishda quyidagi metodik qoidalarga amal qilishi lozim:



Dars maqsadiga moslik – slaydlar faqat dars mavzusini mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

Slaydlar soni va mazmuni – ortiqcha matndan qochish, asosiy tushunchalarga urg‘u berish zarur.

Rang va dizayn uyg‘unligi – ko‘zga yoqimli, o‘qilishi oson ranglardan foydalanish.

Animatsiya me‘yorida – diqqatni chalg‘itmaydigan soddalikda bo‘lishi lozim.

O‘quvchini faol jalb etish – savollar, interaktiv mashqlar, testlar orqali ishtirokni ta‘minlash.

O‘zbek tili ta‘limida PowerPoint yordamida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish.

O‘qituvchi PowerPoint yordamida o‘quvchilarda: matn yaratish; fikrni tahlil qilish; nutqni ifodali qurish; estetik didni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, “Ona tili — millat ko‘zgusi” mavzusida tayyorlangan slaydlarda o‘quvchilar so‘z, ibora va she‘rlar asosida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda ifodalaydi.

Bugungi kunda zamonaviy har bir o‘qituvchi raqamli savodxon bo‘lishi, ta‘lim texnologiyalaridan samarali foydalana olishi lozim. PowerPoint bu jarayonda quyidagicha rol o‘ynaydi: darsni innovatsion asosda tashkil etish imkonini beradi; o‘qituvchining pedagogik va axborot kompetensiyasini oshiradi; darsni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtiradi; ta‘lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

PowerPoint yordamida baholash tizimini takomillashtirish

PowerPoint taqdimotida test, viktorina, “to‘g‘ri–noto‘g‘ri” kabi interaktiv mashqlarni joylashtirish mumkin. Bu esa o‘quvchining bilimini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘zlari ham slaydlar yaratish orqali o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashadi, bu esa metakognitiv (o‘z fikrlashini anglash) ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytmoqchimanki, PowerPoint dasturi o‘zbek tili ta‘limida o‘qitishning samaradorligini oshiruvchi, zamonaviy pedagogik vosita sifatida o‘z o‘rniga ega. Uning yordamida dars jarayonlari nafaqat qiziqarli, balki mazmunli, tizimli va interaktiv tus oladi. Shunday ekan, o‘zbek tili o‘qituvchilari PowerPoint dasturining imkoniyatlaridan keng foydalanishlari, o‘quvchilarni raqamli ta‘lim muhiti bilan uyg‘un holda tarbiyalashlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baron, N.S. (2008). Always on: Language in an online and mobile world. Oxford University PrPress
2. Jo‘rayev, M. (2019). Til va jamiyat.
3. Mengaliyeva, M. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tilning o‘zgarishi.



4. O. Yusufjonova. O'zbek tilini o'qitishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

5. Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 4(3), 87–95.

6. Qodirova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2(1), 56–63.

7. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. *Education and science in the XXI century*. 2 (38).

8. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. *Scientific and practical journal "Technique"*. Issue No.1.

9. Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. *Education and innovative research*. Bukhara State University, 2(2), 234-237.

10. Komilova Z.Kh, Nazirjonova. F.S The role of new information technologies in education. *Экономика и социум*. 2021, № 4-1 (83), -C.167-170.

11. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o'rni va ahamiyati //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 234-237.

12. Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal)*. ISSN, 2249-7137.